

RAHBARLIK VA BOSHQARUVGA OID FUNDAMENTAL FALSAFIY QARASHLARNING SHAKLLANISH TARIXI

Rashidov Komron Kamoliddinovich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar univertsiteti

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası” mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada rahbarlik va boshqaruv konsepsiyalarining tarixiy-falsafiy shakllanish bosqichlari tizimli ravishda tahlil etiladi. Tadqiqot doirasida qadimgi sharq va g‘arb falsafasida rahbarlik g‘oyasining kontseptual ildizlari, ijtimoiy ongda ularning aks etish mexanizmlari va zamonaviy boshqaruv nazariyalari bilan o‘zaro aloqasi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: rahbarlik konsepsiyasi, falsafiy tahlil, boshqaruv modeli, ijtimoiy ong, sotsiomadaniy kontekst, etik me‘yorlar, empirik yondashuv, tarixiy evolyutsiya, ijtimoiy mas‘uliyat, axloqiy yetakchilik.

KIRISH

Zamonaviy boshqaruv falsafasi bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning samarali yo‘naltirilishida muhim kontseptual asoslardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Har qanday ijtimoiy tizimda boshqaruv institutining shakllanishi va rivojlanishi — jamiyat tafakkuri, madaniy an‘analari hamda falsafiy qarashlar evolyutsiyasi bilan bevosita bog‘liq. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, rahbarlik va boshqaruvga oid fundamental qarashlarning shakllanish tarixi qadimgi sivilizatsiyalardan tortib to bugungi global boshqaruv modeligacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Bu tarixiy jarayonni izchil falsafiy tahlil qilish esa nafaqat nazariy asoslarni mustahkamlaydi, balki zamonaviy boshqaruv faoliyatiga ilg‘or g‘oyaviy yo‘nalishlarni ham taklif etadi.

Qadimgi Misr, Babil va Xitoy kabi sivilizatsiyalarda davlatni markazlashgan holda idora qilish, xususan, diniy va ilohiy tushunchalar bilan chambarchas bog‘langan edi. Konfutsiy, Lao-Tzi kabi mutafakkirlar tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy-falsafiy qarashlar, jamiyatda ierarxiyaning asosli va adolatli bo‘lishini ta‘minlashga qaratilgan edi²². Bu yondashuvlar boshqaruvni nafaqat amaliy faoliyat, balki axloqiy majburiyat sifatida ko‘rishga undagan.

Antik davrda, ayniqsa Platon va Aristotel²³ tomonidan ilgari surilgan davlat boshqaruvi haqidagi qarashlar bugungi gacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Platonning “Davlat” asarida ideal rahbar – faylasuf-rahbar obrazini ilgari surilishi, rahbarlikni bilim, donishmandlik va axloqiy mukammallik bilan bog‘laydi²⁴. Aristotel esa davlat boshqaruvining shakllarini tahlil qilar ekan, har bir boshqaruv turining afzallik va kamchiliklarini falsafiy asosda baholaydi. Uning “Politika” asaridagi sinfiy tuzilma va

²² Конфуций. Изречения и беседы / Пер. с кит. – М.: Восточная литература, 2000. – 312 с.

²³ Аристотель. Политика / Пер. с древнегреч. – М.: Мысль, 1983. – 480 с.

²⁴ Платон. Государство / Пер. А. Тахо-Годи. – М.: Мысль, 1994. – 654 с.

boshqaruvga doir ijtimoiy tahlillari bugungi demokratik boshqaruv modellari uchun muhim falsafiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'rta asrlar Yevropa falsafasida esa diniy g'oyalar rahbarlik haqidagi qarashlarga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Avreliy Avgustin va Foma Akvinskiy kabi faylasuflar rahbarlikni ilohiy irodaning ifodasi sifatida ko'rib, rahbarning mas'uliyatini Tangri oldidagi javobgarlik bilan bog'laganlar. Bu yondashuvlar hozirgi davlat-xizmat modeli shakllanishida axloqiy mezonlar muhimligini ta'kidlaydi²⁵.

Yangi davrga kelib, boshqaruvga oid g'oyalar sekulyar tus ola boshladi. Makkiavelli rahbarlikni real siyosiy amaliyot bilan bog'lab, boshqaruvning samaradorligini natijadorlik orqali o'lchash zarurligini ilgari surdi. Ijtimoiy kontrakt nazariyachilari – T. Gobbs, J. Lokk, J.-J. Russo esa boshqaruvni jamiyat va hokimiyat o'rtasidagi shartnoma deb baholab, rahbarlik legitimligining falsafiy asoslarini yaratdilar.

ADABIYOTLAR SHARHI

Rahbarlik va boshqaruv konsepsiyalarining falsafiy-metodologik asosi yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda. Falsafiy tafakkur evolyutsiyasi nuqtai nazaridan, bu masala qadimgi davrlardan boshlab muntazam nazariy izlanishlar markazida bo'lib kelgan. Zamonaviy ilmiy qarashlarda rahbarlik va boshqaruv g'oyalari, ayniqsa, sivilizatsiyaviy taraqqiyot jarayonlarida ijtimoiy munosabatlar, hokimiyat legitimatsiyasi, shaxs va jamoa o'rtasidagi ierarxik tizimlar bilan uzviy bog'lanib ketadi.

Mazkur soha bo'yicha O'zbekistonlik falsafa olimi O.R. Jo'rayevning "Rahbarlik fenomenining falsafiy tahlili" nomli monografiyasida rahbar shaxsining axloqiy-ma'naviy atributlari bilan ijtimoiy institut sifatidagi boshqaruv tizimi o'rtasidagi uzviylik chuqur tahlil etiladi. Muallifning ta'kidlashicha, rahbarlik mohiyatan shaxsiy salohiyat va ijtimoiy zaruriyatning sintezi bo'lib, bu sintez ma'naviy yetuklik, ijtimoiy mas'uliyat va kommunikativ kompetensiyalar orqali amalga oshadi²⁶.

Shuningdek, A.A. Axmedovning falsafa fanlari bo'yicha yozilgan doktorlik dissertatsiyasida rahbarlik g'oyasining madaniy-antropologik ildizlari, ya'ni jamiyatda shakllangan madaniy kodlar, urf-odatlar va diniy dunyoqarashlarning rahbarlik me'zonlariga ko'rsatgan ta'siri ko'rib chiqilgan. Unda boshqaruvning individualistik va kollektivistik modellari tarixiy-falsafiy asosda taqqoslab tahlil qilinadi.

Xalqaro tadqiqotchilar orasida esa Piter Druker, Genri Fayol, va Maksvellning ishlari alohida o'rin tutadi. Jumladan, Fayol tomonidan ilgari surilgan "boshqaruv funksiyalari" nazariyasi (rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik qilish, muvofiqlashtirish va nazorat) zamonaviy menejment falsafasining g'oyaviy asosini tashkil etgan bo'lsa, Drukerning "maqsadga yo'naltirilgan boshqaruv" g'oyasi rahbarlikda strategik tafakkurning zarurligini asoslaydi²⁷.

²⁵ Конфуций. Изречения и беседы / Пер. с кит. – М.: Восточная литература, 2000. – 312 с.

²⁶ Jo'rayev O.R. Rahbarlik fenomenining falsafiy tahlili. – Toshkent: Fan, 2021. – 256 b.

URL: <https://ziyonet.uz/uzc/library/view/41145>

²⁷ Fayol H. General and Industrial Management / Translated by Constance Storrs. – London: Pitman, 1949. – 107 p.

Tadqiqotchi R. D. Green o'zining "Leadership and Power in Organizational Philosophy" nomli ilmiy maqolasida rahbarlikni ijtimoiy-kognitiv konstruksiya sifatida talqin qilib, rahbarlik faoliyatining muvaffaqiyati shaxslararo o'zaro aloqalardagi dominatsiya emas, balki kooperativ sinergetik muhitni yaratishda ekanligini isbotlaydi. Bu yondashuv zamonaviy ijtimoiy boshqaruvning postklassik paradigmasini ifodalaydi²⁸.

Respublikamizdagi ilmiy-analitik tahlillar orasida A. Qodirovning "O'zbek siyosiy tafakkurida rahbar shaxs konsepsiyasi" risolasida milliy tarixiy tajriba asosida rahbarlikka doir ijtimoiy-falsafiy ideallar sistemasi asoslab beriladi. Muallif buyuk ajdodlarimiz — Amir Temur, Alisher Navoiy, Mahmudxo'ja Behbudiy rahbarlik faoliyatini nafaqat ijtimoiy zarurat, balki ma'naviy-axloqiy burch sifatida talqin qilganligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Mazkur tadqiqotda rahbarlik va boshqaruv konsepsiyalarining tarixiy-falsafiy ildizlarini tahlil qilishda zamonaviy falsafiy metodologiyaning turli qatlamlari o'zaro uyg'unlashtirildi. Bunda inson faoliyatining boshqaruv mohiyatini, hokimiyat shakllanishidagi axloqiy-ontologik asoslarni, ijtimoiy ongning transformatsiyalovchi rolini falsafiy mezonlar orqali ochib berish maqsad qilingan.

Rahbarlik ikki asosiy omilga tayanadi²⁹:

1. Shaxsiy xususiyatlar – xarakter, empatiya, iroda, intizom va ijtimoiy salohiyat.
2. Kasbiy ko'nikmalar – strategik fikrlash, qaror qabul qilish, muammolarni hal etish qobiliyati va boshqaruv mexanizmlaridan foydalana olish.

Rahbarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, liderlik qobiliyati. Har qanday rahbar kuchli lider bo'lishi kerak. Liderlik odamlarni ruhlantirish, jamoani maqsad sari yo'naltirish va qarorlarni samarali qabul qilish qobiliyatini talab qiladi. Samarali rahbar jamoada ishonch va hamjihatlik muhitini shakllantirishi kerak.

Ikkinchidan, strategik fikrlash. Rahbar nafaqat kundalik muammolarni hal qilish, balki uzoq muddatli rejalar tuzish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. U iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilishi va shu asosda qarorlar qabul qilishi talab etiladi.

Uchinchidan, qaror qabul qilish qobiliyati. Tez va aniq qaror qabul qilish har qanday rahbar uchun juda muhim. Qaror qabul qilishda xolislik, manfaatlar muvozanatini saqlash va oqibatlarini to'g'ri baholay olish kerak.

Boshqaruv va rahbarlik — bu nafaqat strukturaviy va normativ tizim, balki insonning boshqa insonga nisbatan o'zini tutishidir. Shu sababli rahbarlik fenomeni ijtimoiy munosabatlar kontekstida tahlil qilindi. Tadqiqotda G. Zimmel va M. Veberning ijtimoiy

URL: <https://archive.org/details/generalandindustr00fayo>

²⁸ Green R.D. Leadership and Power in Organizational Philosophy. // ResearchGate, 2018.DOI: 10.13140/RG.2.2.18689.30561

²⁹ Arzimotova I.M "Rahbar va uning o'ziga xos xususiyatlari" tanqidiy nazar", TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR, publika konferensiya to'plami 2025-02-17 7-8 bet

harakatdagi subyektivlik konsepsiyasi asosida hokimiyatga bo'lgan ehtiyoj va ijtimoiy legitimatsiya o'rtasidagi uzviylik ochib berildi. Fenomenologik jihatdan esa rahbarlik – bu "insoniy mavjudlikning boshqa mavjudlikka yo'naltirilgan faolati" sifatida talqin qilindi. Shu orqali rahbarlikning antropologik zaminlari – mas'uliyat, yetakchilik, ma'naviy tayanchlar – tahlilga tortildi.

Shuningdek, mavjud rahbarlik modelining davlat hujjatlaridagi (masalan, "O'zbekiston 2030" strategiyasidagi boshqaruv tamoyillari) ifodalanish shakllari ham hujjatshunoslik metodi orqali tahlil qilindi. Bu orqali rasmiy diskurs va real amaliyot o'rtasidagi tafovut aniqlanib, ularning ijtimoiy ongda qanday aks etayotgani o'rganildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Tadqiqot davomida rahbarlik va boshqaruv konsepsiyalarining tarixiy-falsafiy shakllanish jarayonini o'rganish asosida bir qator dolzarb ilmiy-amaliy xulosalar olindi. Avvalo, rahbarlik fenomeni jamiyat taraqqiyotida doimo markaziy falsafiy kategoriya sifatida shakllanganini isbotlovchi tarixiy dalillar aniqlashtirildi. Platon, Aristotel, Konfutsiy va Ibn Xaldun singari mutafakkirlar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar bugungi zamonaviy boshqaruv paradigmasida ham o'z aksini topayotgani kuzatildi. Bu esa rahbarlikning faqatgina ijtimoiy texnologiya emas, balki madaniyat, axloq va ong doirasida shakllanuvchi falsafiy-ma'naviy hodisa ekanligini tasdiqlaydi.

Muhim natijalardan biri — jamiyatdagi rahbarlik modellari hali ham sotsiomadaniy stereotiplar bilan chegaralanganidir. An'anaviy ierarxiyaviy tuzilmalar rahbarlikni hokimiyat bilan tenglashtirsa, zamonaviy tendensiyalar rahbari jamoa bilan hamfikir, ochiq muloqotga tayyor shaxs sifatida talqin etmoqda. Bu ikki qutb orasidagi ziddiyat amaliy boshqaruvda o'zini kuchli namoyon qilmoqda.

Shuningdek, raqamli transformatsiya va ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi, rahbarlik faoliyatining yangi, ilg'or shakllarini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli etik qadriyatlar, ochiqlik va ishonch omillari rahbarlikdagi yangi yondashuvlar sifatida talqin etildi. Tahlil natijalari rahbarlikka oid fundamental tushunchalarning global madaniyat bilan sintezini taqozo qilayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, ushbu natijalar rahbarlikni tor boshqaruv vazifasi emas, balki ijtimoiy ong, shaxsiy axloq va madaniy kontekstda shakllanuvchi murakkab falsafiy struktura sifatida ko'rib chiqish zarurligini asoslab beradi.

XULOSA

O'rganilgan tarixiy-falsafiy, sotsiomadaniy va empirik dalillar asosida rahbarlik konsepsiyasi jamiyat taraqqiyotining murakkab kognitiv, aksiologik va kommunikativ kategoriyasi sifatida talqin etilishi zarurligi isbotlandi. Tadqiqot rahbarlikni faqat funksional boshqaruv vositasi emas, balki ijtimoiy ongda shakllanuvchi madaniy-falsafiy fenomen sifatida yoritishga xizmat qildi. Amaliy tahlillar shuni ko'rsatdiki, samarali rahbarlik axloqiy mas'uliyat, ijtimoiy ishonch va tafakkuriy salohiyatga asoslangandagina barqaror boshqaruv tizimini shakllantiradi. Shu asosda rahbarlikning

yangi davrda kontekstual, adaptiv va ma'naviy jihatdan yetuk modellari falsafiy mezonlarda qayta ko'rib chiqilishi zarur.

ADABIYOTLAR:

1. Arzimatova I.M “Rahbar va uning o‘ziga xos xususiyatlari” TANQIDIY NAZAR TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G‘OYALAR Respublika konferensiya to‘plami 2025-02-17 7-8 bet
2. Fayol H. General and Industrial Management / Translated by Constance Storrs. – London: Pitman, 1949. – 107 p.
3. Green R.D. Leadership and Power in Organizational Philosophy. // ResearchGate, 2018. DOI: 10.13140/RG.2.2.18689.30561
4. Jo‘rayev O.R. Rahbarlik fenomenining falsafiy tahlili. – Toshkent: Fan, 2021. – 256 b. url: <https://ziyonet.uz/uzc/library/view/41145>
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. O‘zbekistonning eng yangi tarixi: O‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, 2021. – 204 b.
6. Аристотель. Политика / Пер. с древнегреч. – М.: Мысль, 1983. – 480 с.
7. Конфуций. Изречения и беседы / Пер. с кит. – М.: Восточная литература, 2000. – 312 с.
8. Платон. Государство / Пер. А. А. Тахо-Годи. – М.: Мысль, 1994. – 654 с.